

Qoraqolpog‘iston Respublikasining qonunchilik va vakillik hokimiyati organi Jo‘qorg‘i Kenges faoliyatining huquqiy asoslari

Xurshidbek Baxrom o‘g‘li Abduazimov
xurshidbekabduazimov@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqolpog‘iston Respublikasining qonunchilik va vakillik hokimiyati organi - Jo‘qorg‘i Kenges faoliyatining asoslari o‘rganilgan. Bundan tashqari hokimiyatning bo‘linish prinsipi talablariga mos keladigan davlat hokimiyatining vakillik organining tizimi, qonuniy asosi, vakolatlari, mansabdor shaxslarni saylash, lavozimdan ozod qilish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, Jo‘qorg‘i Kengash, sessiya, presidium, suveren, hokimiyat, mansabdor shaxs, deputat, parlament, saylov

Legal bases of the activities of Jo‘qorg‘i Kenges, the legislative and representative power body of the Republic of Karakalpakstan

Khurshidbek Bakhrom oglu Abduazimov
khurshidbekabduazimov@gmail.com
Tashkent State Law University

Abstract: This article explores the basics of the activities of the legislative and representative governing body of the Republic of Karakolpagstan - Jo‘qorg‘i Kenges. In addition, it was mentioned about the system of the representative body of the state government, the legal basis, powers, officials, the dismissal of officials in accordance with the requirements of the principle of division of the government.

Keywords: Constitution, Jo‘qorg‘i Kenges, session, presidium, sovereign, Governor, official, MP, Parliament, election

Ma‘lumki, vakillik organlarining qonuniyligi ularning o‘z vakolatlarini bevosita xalq qo‘lidan olganligi bilan belgilanadi. Bu davlat hokimiyati boshqa shoxobchalarini vakillik organlari tomonidan tashkil qilishning qonuniyligi uchun zamin yaratadi. 1993-yil 9-aprelda qabul qilingan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi huquqiy davlat tavsifiga mos keladigan va

hokimiyatning taqsimlanish prinsipi talablariga javob beradigan davlat hokimiyati vakillik organlarining yangi tizimini belgiladi.

Konstitutsiyaga binoan oliy vakillik va qonunchilik hokimiyati organi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Jo‘qorg‘i Kengesi, mahalliy vakillik organlari esa mahalliy Kengashlar deb nomlandi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi mahalliy hokimiyat organlarining avvalgi uch pog‘onali tizimi o‘rniga (qishloq, ovul, posyolka, tuman, shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Soveti) ikki pog‘onali vakillik organlari tizimi (tuman-shahar; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi)ni o‘rnatdi. Shuningdek, ba‘zi shaharlarda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlarda) vakillik organlari tuzilishi nazarda tutilmadi. Bu bilan vakillik organlari tizimi faqat ikki pog‘onali ko‘rinishga keltirilibgina qolmay, saqlab qolingani ham ixchamlashtirildi. Shunday qilib, Konstitutsiya va tegishli qonunlarga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasida davlat hokimiyati vakillik organlarining quyidagi tizimi:

- Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengesi;
- Xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari tashkil topdi.

Vakillik organlarini tashkil etish va faoliyatida fuqaro larining keng ishtiroki, qonuniylik, millatlarning tengligi, kollegiallik, oshkoralik va ko‘pchilik e‘tirof etgan umumiy prinsiplarga tayanilgan.

Hokimiyatning taqsimlanish prinsipi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan. Bu prinsip mamlakatning muayyan tarixiy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda oqilona joriy etilsagina, hokimiyat organlarining tengligini va muvozanatini ta‘minlash mumkin. Shuningdek, bu holat 1998-yil 29-yanvarda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunda o‘z ifodasini topgan¹.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi miqyosidagi organlar faoliyatida hokimiyatning taqsimlanish prinsipida bir qancha natijalarga erishildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi - oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi².

Jo‘qorg‘i Kenges Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarini qabul qiluvchi, unga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega bo‘lgan yagona davlat organidir.

Jo‘qorg‘i Kenges tub mohiyati bilan parlament organidir. U vakillik tavsifiga ega. Bu avvalo uning tashkil bo‘lishida Qoraqalpog‘iston fuqarolarining bevosita ishtirok etishida yaqqol ko‘rinadi. U o‘zida vakillik va bevosita demokratiya xususiyatlarini mujassamlantirgan. Uning tarkibida ish olib boruvchi deputatlar

¹ Qoraqalpog‘iston Respublikasining 1998-yil 29-yanvardagi "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi" qonuni

² Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi // www.joqargikenes.uz

fuqarolarning vakilidir, ular o'z vakolatini saylovchilardan oladi, ular nomidan ish olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasida Jo'qorg'i Kenges orqali xalq hokimiyatchiligi mustahkamlab qo'yilgan. Respublika parlamenti - Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deb ataladi. Jo'qorg'i Kenges respublikadagi butun davlat apparatining yagona va doimiy asosi bo'lib, u davlatni boshqa organlarini saylaydi yoki tuzishda ishtirok etadi, ular faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi davlat hokimiyatining oliy organi sifatida Qoraqalpog'iston ixtiyoriga berilgan barcha masalalarni hal etish huquqiga ega. Jo'qorg'i Kenges vakolat doirasiga respublika Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritish; qonunlar qabul qilish, unga qo'shimchalar, o'zgartishlar kiritish; ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish; iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat strategik dasturlarini qabul qilish; davlat hokimiyati organlariga saylovlarni tashkil etish; davlat mukofotlarini belgilash va asosiy qonunda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish kiradi. Xususan, Jo'qorg'i Kengesning mutlaq vakolatlari quyidagilardan iborat³:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarini qabul qilish, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga izoh berish;

3) iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini qabul qilish;

4) Jo'qorg'i Kenges Prezidiumini, qo'mita va komissiyalarni tuzish;

5) Jo'qorg'i Kenges Raisini va uning o'rinbosarini, qo'mitalar va komissiyalarning raislarini saylash;

6) Jo'qorg'i Kenges Raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining (bundan buyon matnda Vazirlar Kengashi deb yuritiladi) Raisi nomzodini tasdiqlash to'g'risidagi taqdimnomasiga binoan Vazirlar Kengashi Raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish;

7) Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosarlari va Vazirlar Kengashining a'zolarini lavozimiga tayinlash va ozod qilish;

8) Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzish va tugatish;

9) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasini saylash;

³ M.Utemuratov, O.Babadjanov Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomi. Qo'llanma

10) Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi raisi va uning o‘rinbosarlarini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudi raisi va uning o‘rinbosarini lavozimlariga saylash; (QR JK 28.12.2020-y. 88/XII-sonli QR Qonuniga asosan o‘zgartishlar kiritilgan);

11) Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi sudyalarini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudining sudyalarini hamda fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo va tuman sudlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman va shahar sudlari, tumanlararo iqtisodiy sudlar, ma‘muriy sudlar raislari va sudyalarini tayinlash (QR JK 28.12.2020-y. 88/XII-sonli QR Qonuniga asosan o‘zgartishlar kiritilgan);

12) Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining raisini va raisning o‘rinbosarlarini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudi raisini va raisning o‘rinbosarini, sudyalarini lavozimidan ozod qilish (QR JK 28.12.2020-y. 88/XII-sonli QR Qonuniga asosan o‘zgartishlar kiritilgan);

13) Jo‘qorg‘i Kenges Prezidiumining taqdimiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Prokurorini tayinlash va lavozimidan ozod qilish;

14) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish qo‘mitasining raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish (QR JK 30.12.2017-y. 167/XIX-sonli QR Qonuniga asosan o‘zgartishlar kiritilgan);

15) xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlarini to‘xtatib qo‘yish va bekor qilish;

16) tumanlar, shaharlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini va chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqish;

17) respublika va mahalliy davlat hokimiyat organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

18) Vazirlar Kengashining tuzilmasini, uning xodimlari shtatlari va mehnatga haq to‘lash fondini tasdiqlash;

19) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash;

Mansabdor shaxslarni Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan saylash, tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish tartibi Jo‘qorg‘i Kenges Reglamentida belgilanadi.

Jo‘qorg‘i Kengesning faoliyati masalalarini jamoa bo‘lib, erkin, amaliy muhokama qilish va hal etish, oshkoralik, uning tomonidan tuzilgan davlat organlarining hisob berib turishi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning keng ko‘lamda faol qatnashishi, jamoatchilik fikrini hamisha hisobga olib borish asosida amalga oshiradi. Jo‘qorg‘i Kengesning huquqiy maqomi respublika Konstitutsiyasi, Jo‘qorg‘i Kengesning ish tartibi to‘g‘risidagi qonuni, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi to‘g‘risidagi qonunlarda belgilangan.

Jo'qorg'i Kenges faoliyatining barqarorligi va samaradorligi Jo'qorg'i Kenges sessiyasi, Prezidiumi, qo'mitalari, komissiyalari va deputatlarining ish faoliyati bilan ta'minlanadi.

Jo'qorg'i Kenges bir palatali organ, besh yil muddatga saylanadigan oltmish besh nafar deputatlardan iborat. Jo'qorg'i Kenges deputatlari hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Jo'qorg'i Kengesga saylov o'tkazish tartibi Qoraqalpog'iston Respublikasining "Saylov to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Saylov to'g'risidagi Qonunining 65-moddasida Jo'qorg'i Kenges deputatligiga nomzodlarga qo'yiladigan talablar belgilangan bo'lib, unga ko'ra, Jo'qorg'i Kengesga saylanish huquqiga saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan fuqarolar egadir. Mazkur moddada sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoxud sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar; saylov kuniga qadar so'nggi besh yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan fuqarolar harbiy xizmatchilar, Davlat xavfsizlik xizmatining, Milliy gvardiyaning, Ichki ishlar vazirligining, Davlat bojxona qo'mitasining, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalarning xodimlari diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari Jo'qorg'i Kenges deputatligiga nomzod etib ro'yxatga olinmasligi haqida, shuningdek, sudyalar, prokuratura organlari ning va ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslari (bundan tuman va shahar hokimlari mustasno) deputat etib saylangan taqdirda, egallab turgan lavozimidan bo'shsh to'g'risida ariza berish sharti bilan Jo'qorg'i Kenges deputatligi ga nomzod etib ro'yxatga olinishi ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. Qoraqalpog'iston Respublikasining 1998-yil 29-yanvardagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi" qonuni
3. Ниетуллаев С.Д. Қарақалпақстан Республикасынын конституциялық хукукы
4. M.Utemuratov, O.Babadjanov Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomi. Qo'llanma
5. www.joqargikenes.uz